# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

7
2023

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

7491
ISSN: 2992-8982

1931 TDIU TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisi o‘rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O‘zR Tabiat resurslari vaziri o‘rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog‘iston Resp. Tabiat resurslari qo‘mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O‘zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O‘zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
**Ochilov Farxod,** O‘zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo‘limi boshlig‘i
**Eshov Mansur Po‘latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo‘yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., “O‘IRIAM” ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori
**Karimov Norboy G‘aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro “Nordik” universititi rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori o‘rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o‘qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti

**Ekspertlar kengashi:**
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To‘lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti



**Jurnalning ilmiyligi:**

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

# MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan ........................................................ 6
**Raekwon Chung**, Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE

Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari........................................................ 8
**Nodira Shotursunova,** Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari ........................................................ 12
**Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich,** t.f.n., dotsent

Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari........................ 16
**Egamov Zoxid Baxtiyarovich,** bosh mutaxassisi

Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development:
Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development ........................ 26
**Muratova Muzayana,** Teacher

Анализ состояния применения механизма инновационного управления
инфраструктурами нефтегазовых предприятиях в условиях глобальной потепление земли........................ 34
**Кучаров Аброр Сабиржанович,** профессор; **Динара Нурмамад кизи Ишманова,** доцент; **Тю Константин Геннадьевич,** соискатель

Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills

of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy ........................ 39
**Nargiza Samandarova Muxammadovna,** Teacher

The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy........................ 47
**Ikromov Sayidolim,** Teacher

O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari........................ 54
**Rasulova Nigora Yusupovna,** kafedra assistenti

Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati ........................ 58
**Jontemirova Iroda Ikrom qizi,** talaba

Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni ........................ 61
**Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna,** talaba

O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati........................ 64
**Raxmanov M. A.,** tayanch doktorant

Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education........................ 68
**Tukhtaeva Shakhnoza,** Teacher

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari........................ 75
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** kafedra dotsenti; **Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli,** tayanch doktoranti

Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash ........................ 79
**Berkinov Bozorboy,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor; **Qulmatova Sayyora Safarovna,** PhD; **Ruxsatova Rushana O'ktamovna**, erkin tadqiqotchisi

O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari ........................ 86
**Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich,** mustaqil izlanuvchi

O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari........................ 97
**G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich,** i. f. d., professor; **Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich,** i. f. f. d. (PhD)

Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.................... 102
**Raxmanov Mexridin Sindarovich,** kafedra dotsent v. b.

Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi........................ 106
**Ortiqov Uyg'un Davlatovich,** kafedra dotsenti, i.f.n.

Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания ........................ 115
**Марданова Барно Асатуллоевна,** докторант

Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan........................ 119
**Aziz Zikriyoev,** PhD

Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya
va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi........................ 129
**Kambarova Sh. M.** i.f.b.f.d. PhD

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari ....134
**Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna,** dotsent

Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari ....139
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; **Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna,** talaba

Byudjyetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli ....147
**Norov Akbar Ruzimamatovich**

O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari tahlili ....151
**Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich,** i.f.f.d.(PhD)

Aholining tadbirkorlik faolligini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli ....158
**Xudayarova Maftuna Shavkatovna,** tayanch doktorant

Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi ....164
**Karimova Shirin Zoxid qizi,** tayanch doktorant

Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash ....168
**Shakirova Nigora Axralovna,** kafedra dotsenti v.b.

Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida ....172
**Raximbayev Akmal Azatboyevich,** mustaqil tadqiqotchi

Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management....177
**Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna,** PhD

Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati ....182
**Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li,** tayanch doktorant

Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati....186
**Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich,** mustaqil izlanuvchi

Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari....195
**Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li**

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi....199
**Abduturapova Dildora Farxodjon qizi,** tayanch doktorant

Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili ....205
**Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich,** 3 st year doctoral student

Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatchiligi faoliyati tahlili....210
**Tashmuxamedova Yayra,** tadqiqotchi

Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance....213
**Rakhimova Gulnoza,** Teacher

Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия)....218
**Искендир Аккуралай Абдиуалиевна,** докторант

Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri ....222
**Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna,** kafedra dotsenti; **Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi**

Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны ....228
**Суюнова Фотима Баходир кизи,** базовый докторант

Таргетирование инфляции в Узбекистане: предпосылки применения и первые итоги ....233
**Рашидов Рахимжон Искандарович,** в.и.о доцента; **Якубова Шамшинур Шухратовна,** к.э.н., доцент, докторант (DSc)

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni ....240
**Nomozova Qumri Isoyevna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari....248
**Nazarov Qilich Xolmuradovich,** kafedra assistenti

Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni....255
**Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li,** mustaqil tadqiqotchi

Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari....262
**Do'sanov Doniyor,** magistr

Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar ....269
**N. N. Ro'ziyev**

Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan....277
**Sattorova Nasiba G'anijon qizi,** Teacher

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati....284
**Murodova Dilnoza Choriyevna,** PhD

Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish ....288
**Gadoyev So'hrob Jumakulovich,** mustaqil tadqiqotchi

Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari....295
**M. A. Saparova,** talaba

Приоритетные направления модернизации системы подготовки туристских кадров....299
**Очилова Хилола Фармоновна,** к.э.н., доцент

Improving the use of competitive strategies in the management
of sewing and knitting enterprises during green development ....304
**Vafoyeva Dilafruz,** Teacher

O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari ....311
**Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li,** katta o'qituvchisi, PhD

O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili ....316
**Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna,** tayanch doktorant

O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategyalaridan foydalanish yo'llari ....323
**Xalilova Nafisa Komilovna,** magistrant

Ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba ....327
**Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li,** tayanch doktarant

Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического
потенциала хлопково-текстильных кластеров....334
**Джурабаев Отабек Джурабаевич,** доцент кафедры

Необходимость управления активами и пассивами современными банками Узбекистана....341
**Фаттахова Муниса Абдухамитовна**

Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri ....349
**Jumabayeve Akmole Sheraliyevich,** magistrant

Цифровая валюта: возможные последствия вывода из обращения наличных денег ....354
**Бахромов Мирзаахмад Рустам угли,** студент; **Абдикаримова Динара Рустамхановна,** научный руководитель, д. э. н. (DSc)

Systematic mapping study of higher education in green development context....361
**Asqarova Feruza Abdullaevna,** Senior Teacher
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari....368
**Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li,** kafedra o'qituvchisi; **Shaymanova Nigora Yusupovna,** tayanch doktoranti

Особенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп
начальной специализации....373
**Д. К. Исмагилов,** кандидат педагогических наук, доцент

Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development....377
**Shodmonkulova Shahlo,** PhD student

Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi ....384
**Mamatov Sardor Axmatjonovich,** mustaqil tadqiqotchi

Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari....390
**Voxidov Oybek Rozikovich,** mustaqil tadqiqotchisi

Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language
Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy ....398
**Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli,** Teacher

Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari ....406
**Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna**, mustaqil izlanuvchi (PhD)

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS



# O'ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Rasulova Nigora Yusupovna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Turizm va servis kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonning yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari o'rganilgan. Jumladan, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda ekoturizmning ahamiyati, "yashil" iqtisodiyotni shakllantirishda hududlarning ekoturistik imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalari ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy taklif va xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ekoturizm, "yashil" iqtisodiyot, ekoturistik imkoniyatlar.

Аннотация: В статье рассматриваются перспективы развития зеленого туризма в Узбекистане. В частности, научно проанализированы значение экотуризма в охране окружающей среды и рациональном использовании природных ресурсов, вопросы эффективного использования экотуристического потенциала регионов в формировании "зеленой" экономики. Также представлены научные предложения и выводы по развитию области.

Ключевые слова: экотуризм, "зеленая" экономика, возможности экотуризма

Abstract: The article discusses the prospects for the development of green tourism in Uzbekistan. In particular, the significance of ecotourism in environmental protection and rational use of natural resources, the issues of effective use of the ecotourism potential of the regions in the formation of a "green" economy are scientifically analyzed. Scientific proposals and conclusions on the development of the region are also presented.

Key words: ecotourism, "green" economy, ecotourism opportunities

## KIRISH

Yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekistondagi mehmondo'stlik va turizm sohasi uchun dolzarb vazifadir. Yashil texnologiyalarni joriy etishning asosiy maqsadi energiya va tabiiy resurslarni iste'mol qilish darajasini pasaytirish, chiqindilarni kamaytirish va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishini oldini olish, shu bilan birga mehmonlar uchun qulay yashash sharoitlarini saqlab qolish va albatta biznesning rentabelligini oshirishdan iborat hisoblanadi.

Mamlakatda ekologik turizmni rivojlantirish, mazkur sohada aholini ish bilan bandligini oshirish va shuning bilan bir qatorda tabiiy turfa xillikni, ya'ni biobalansni saqlash, iqlim o'zgarishlarining oldini olish maqsadida davlat organlarining ekologik turizmni rivojlantirish sohasida aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan izchil ishlar olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda, ekologik turizmni rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion platformalarni amaliyotga keng tatbiq etishning yaxlit tizimini yaratish, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini boshqarish va joriy etish sohasidagi bir qator tizimli muammo va kamchiliklar ushbu sohaning jadal rivojlanishiga, sifatli axborot xizmatlarini ko'rsatishga to'sqinlik qilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yilning 30-mart kuni mamlakat turizmini rivojlantirish bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.1 Biryoqlama iqtisodiyot barqaror bo'lmaydi. Shu bois, mamlakatimizda iqtisodiyotni tarkibiy isloh qilib, keng ko'lamda rivojlantirish choralari ko'rilmoqda. Xususan, turizm drayver sohalardan biri sifatida belgilanib, zarur sharoitlar yaratilmoqda. Masalan, sayyohlarga viza berish yengillashtirildi. Aeroportlarda navbatlar va tekshirishlarga barham berildi, yashil yo'laklar qilindi. Valyuta ayirboshlash bemalol bo'ldi. Shuningdek, suv omborlari, o'rmon xo'jaligi yerlarini o'rganib, xavfsiz yerlarda turistik zonalar tashkil etish mumkinligi qayd etildi. Qoraqalpog'iston, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Surxondaryo, Farg'ona va Xorazmning cho'l hududlarida "safari" turizmini rivojlantirish bo'yicha takliflar bildirildi. Shuningdek, ekologik turizmni rivojlantirishda innovatsion raqamli platformalarni tatbiq etish dolzarb masalalardan bo'lib hisoblanadi.

1 https://www.spot.uz/oz/2023/03/30/tourism-assignment/

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ–4477-son qarori bilantasdiqlangan 2019–2030-yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtishStrategiyasida iqlim oʻzgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardanfoydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash boʻyicha bir qator vazifalarkeltirilgan. Shuningdek, 2030-yilgacha boʻlgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning 15-maqsadi “Quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga koʻmaklashish, oʻrmonlardan oqilona foydalanish, choʻllanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini toʻxtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yoʻqolib ketish jarayonini toʻxtatish”dan iborat. Bu esa oʻz navbatida, hududlarning turistik-rekreatsion imkoniyatlaridan samarali foydalanish va ekoturizmni rivojlantirishtirish bilan bogʻliq.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” gi PF–60-son, 2018-yil 3-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish boʻyicha qoʻshimcha tashkiliy chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF–5326-son Farmonlari, 2017-yil 18-yanvardagi “2017–2021-yillarda Orolboʻyi mintaqasini rivojlantirish davlat dasturi toʻgʻrisida”gi PQ–2731-son Qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-dekabrdagi “Ekoturizmni rivojlantirish va suv omborlarining suvni muhofaza qilish zonalari doirasida yer uchastkalari ajratish tartibini takomillashtirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” gi 978-son qaroriva boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish Oʻzbekistonda ekoturizmni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ekoturizmning maqsadini belgilashda jahonda ekoturizmning kelib chiqishi va shakllanishini puxta oʻrganishni talab qiladi. Hozirgi kunda ekoturizm jahon turizmida jadal rivojlanib borayotgan yoʻnalish hisoblanadi. Shu oʻrinda ekoturizm insoniyatning XXI asrdagi eng ogʻir sayyoraviy ekologik muammolarining yechimlarini ham topilishida najot yoʻllaridan biri ekanligining mazmunini, mohiyatini tushunib olishni talab qiladi. Turizmning koʻplab turlari oʻz mavzusi yoki atalishi boʻyicha bir yoʻnalishni yoki bir maqsadni bildiradi.

Jahonda iqtisodiyotning xizmat koʻrsatish sohasi tarkibida ekoturizm xizmatlarini rivojlantirish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning tahliliga koʻra2027-yilga borib jahon ekoturizm bozori hajmi 2020-yildagi 351 000 million AQSh dollaridan 878 760 million AQSh dollariga yetishi va 2021–2027-yillar mobaynida oʻrtacha 14% oʻsishi bashorat qilinmoqda[2].

AQShda qoʻriqxonalar XIX asrda shakllantirildi va mamlakatda ekoturizm ancha yaxshi rivojlangan. AQSh muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarga tashrif buyuruvchilardan olinadigan daromadlar boʻyicha yetakchilik qilmoqda. Keyingi oʻrinlarda Avtraliya va Keniya turibdi. Laos, Kosta-rika, Peru, Nepal, Ekvador, Hindiston, Filippin ekoturistlar diqqat markazida turgan hududlar hisoblanadi. Yevropada muhofazalanadigan hududlar Germaniyada 37% ni, Rossiyada esa 13,9 %ni tashkil etadi. Finlyandiya, Norvegiya va Islandiya davlatlari “yashil” turizm uchun diqqatga sazovor joylardan hisoblanadi[3].

Respublikamizda oʻziga xos ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga, ekologik vaziyatiga va mentalitetiga ega boʻlgan bevosita Oʻzbekiston Respublikasi ekoturizmni rivojlantirish, turistik xizmatlar raqobatbardoshligi, tashkiliy-iqtisodiy omillaridan samarali foydalanishning ilmiy-amaliy masalalari boʻyicha yaxlit ilmiy izlanishlarning amalga oshirilmaganligi tadqiqotlar yoʻnalishini belgilashda asos boʻlib xizmat qildi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda jahon ilm-fanida turli tadqiqotchilar tomonidan ekoturizm bilan bogʻliq boʻlgan ilmiy-nazariy va amaliy-fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, ekoturizmning tabiatga taʼsiri, ekoturizmning barqaror rivojlanishi, ekoturizm imkoniyatlari kabi masalalarda olib borilayotgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Soha mutaxassislari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar amalga oshirilish metodologiyalari bilan bir-biriga ancha yaqin, oʻxshash boʻlsa-da, ammo ularning maqsad va oʻrganish sohasi turlicha ekanligini eʼtirof etish mumkin. Xususan, ekoturizm imkoniyatlarining kengayishi, ekoturizmning barqaror rivojlanishi, ekoturizmning oʻrni masalalari boʻyicha Mayra Sanchez Morgan[4], Harshavardhan Reddy Kummitha, TuğbaKiper[5], I. P. Menbere, K. Miller, Ceballos Lascurain H. Kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarni misol sifatida keltirish mumkin.

F. T. Egamberdiyev va H. Y. Yoqubjonovalar oʻzlarining ilmiy maqolalaridan birida: “Turizmning ekologik yoʻnalishi dastavval, dunyo miqyosida amaliy ishlardan boshlangan. Ekoturizm ayni kunda namunali tarzda rivojlanib kelayotgan Skandinaviya mamlakatlarida 1972-yildan boshlab fuqarolarga kitlarni tomosha qilish va oʻrganishni tashkil qilish orqali yigʻilgan mablagʻni ularning muhofazasi uchun sarflashgan. Keyinchalik mam-

2 globenewswire.com
3 https://plus-one.ru/manual/2021/08/24/chto-takoe-ekoturizm-sovremennaya-koncepciya-zelenogo-turizma
4 Mayra Sanchez Morgan, Doctor of Philosophy dissertation on “Ecotourism and Women’s Empowerment: A Case Study in Quintana Roo Mexico” Michigan Technological University, 2019. https://doi.org/10.37099/mtu.dc.etdr/971
5 TuğbaKiper, “Role of Ecotourism in Sustainable Development” Namık Kemal University, -Turkey, 2013. http://dx.doi.org/10.5772/55749

lakatda ekoturistik marshrutlar ishlab chiqilib, ular Yevropaning boshqa mamlakatlariga, Osiyo, Shimoliy Amerika davlatlariga yoyilgan"ligini[6] ma'lumot sifatida keltirib o'tadilar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy izlanish jarayonida aniq faktlar asosida tadqiqot o'tkazishda statistik va moliyaviy holat dinamikasini aks ettirish, ma'lumotlarni guruhlarga ajratish hamda indeks va normativ usullarini hisobga olib ularning tuzilishini o'rganish asosida ijtimoiy-iqtisodiy holatlarni tahlil qilish, iqtisodiy jarayonlarni anglashni mantiqiy xulosalash, tahlil va sintez qilish, ko'rsatkichlar dinamikasini tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni taqqoslash kabi usul va uslublardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikada ekoturizmni rivojlantirish mamlakat tabiatini muhofaza qilish va atrof muhit tozaligini saqlash yuzasidan qo'shimcha sa'y-harakatlarni talab etadi. Shu o'rinda tabiiy savollar tug'iladi: qanday qilib ekoturizmni mamlakatning tabiiy merosiga va mavjud ekosistemasiga zarar yetkazmasdan rivojlantirish mumkin? Ikki yo'nalishni o'zaro uyg'unlikda olib borish mumkinmi?

"Bugungi kunda ekologik barqarorlik raqobatbardoshlikning muhim omili bo'lib bormoqda. Ekologik xabardorlikni oshirish, xalqaro standartlarni joriy etish, samarali ekologik texnologiyalarni qo'llash mamlakatda turistik tarmoqni yanada rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbekiston prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2020-yil 28-sentyabrdagi yig'ilishda ta'kidlab o'tganidek, mahsulotning sifati va raqobatbardoshligini oshirish uchun milliy standartlarni xalqaro talablarga muvofiq darajaga keltirish va ularni korxonalarda joriy etish muhimdir.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqining O'zbekistonning yashil iqtisodiyot bo'yicha milliy dasturi qabul qilinishini va 2030-yilgacha "yashil" rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Uzoq istiqbolga mo'ljallangan ushbu hujjat issiqxona gazlari chiqarilishini qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishni kengaytirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan.

Yashil turizmni rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu borada Turkiya 2023-yilda dunyodagi birinchi milliy yashil yoki ekoturizm dasturini ishga tushirishni rejalashtirmoqda.U bir necha bosqichdan iborat bo'lib, 2030-yilgacha davom etadi.

Dastur Global Barqaror Turizm Kengashi bilan hamkorlik kelishuvi doirasida amalga oshiriladi va iqlim bo'yicha Parij kelishuvi asosida mahalliy turizm sanoatida global barqaror rivojlanish amaliyotini joriy etish va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishni nazarda tutadi. "Xalqaro sayyohlarning 87 foizi barqaror turizm doirasida sayohat qilishni xohlaydi. Dam oluvchilarning uchdan ikki qismi ekologik toza sayyohlik kurortlarida qolishga moyil.

O'zbekiston okean va dengizlardan uzoqda joylashgani va tabiiy suv havzalari hajmi kichikligi sababli ekoturizmni rivojlantirish uchun maqbul joylari qo'riqxonalar va ularga yaqin joylashgan hududlar hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda Toshkent, Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlarida joylashgan 7 ta qo'riqxona mavjud bo'lib, umumiy-maydoni 188,33 ming gektardan oshadi. Ushbu qo'riqxonalar asosan yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlar va o'simliklarni himoya qilish maqsadida tashkil etilgan.

Tadqiqotchi M. Z. Ruzimovaning fikriga ko'ra: O'zbekiston ekoturistik resurs va imkoniyatlarga juda boy. Turoperatorlik firmalari tomonidan "Toshkent-Chorvoq-Toshkent", "Toshkent-Bildirsoy-ChimyonToshkent", "Toshkent-Zomin-Toshkent", "Toshkent-Aydarko'l-Toshkent" kabi marshrutlarda o'tkazilgan ekoturlar, cho'l hududlardagi tuyadagi sayr, nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo turistlarining katta e'tibor va e'tiroflariga sazovor bo'lmoqda. Tahlillarga ko'ra, ekoturizm xizmatlarini ko'rsatayotgan turoperatorlik firmalari asosan, Chimyon-Chorvoq rekreatsiya zonasi doirasida faoliyat ko'rsatmoqda xolos. Biroq, O'zbekistonning Hisor, Bobotog', Ko'hitangtog' (Surxondaryo), Chaqchar (Qashqadaryo), Nurota (Navoiy-Jizzax), Zarafshon (Samarqand), Turkiston (Jizzax), Oloy (Farg'ona), Qurama, Chotqol (Namangan) tog'lari, Qizilqum cho'lidagi qoldiq tog'lar, Qizilqum cho'li, Orol dengizining qurigan tubi va qodiq sho'r ko'llar, Ustyurt platosi, Borsa kelmas sho'rxogi, Mingbuloq botig'i, Aydarko'l, Dengizko'l, Amudaryo va Sirdaryo sohilidagi to'qaylar, Muruntov kareri va tabiatning noyob yodgorliklari bo'ylab majmuali va mavzuli ekoturlar tashkil etish to'laqonli yo'lga qo'yilmagan. O'zbekistonda o'ziga xos joziba va takrorlanmas manzaralarga boy bo'lgan speleoturizm (g'or turizmi) katta imkoniyatlarga ega. Ayni paytda O'zbekistonda 500 dan ortiq g'orlar bo'lib, ma'lumotlarga ko'ra, yetarli turistik infratuzilmaga ega bo'lmaganligi sababli ularning birortasiga ham ekoturlar tashkil etilmayapti. O'zbekiston cho'llari va tekislik hudlarida barxan, dyuna, to'qay, sho'rxok, taqir, quduqlarni, shuningdek mahalliy cho'ponlar yashash tarzini namoyon qiluvchi o'tovlarni tomosha qilishga qaratilgan tuya sayrini tashkil etish katta imkoniyatlarga ega.[7]

---

6 Egamberdiyev F. T. Yoqubjonova H. Y. Ekoturizmning iqtisodiy mohiyati va uni takomillashtirish masalalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy electron jurnali. –Toshkent, 2018. -№ 3. –B. 3.

7 M. Z. Ruzimova. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning istiqbollari. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3,848 (SJIF) February 2023 / Volume 4 Issue 2

Turizmning birgina ekologik yo'nalishiga doir 20 xil ko'rinishini Qashqadaryo viloyatidarivojlantirish imkoniyati mavjud bo'lib, bu o'z o'rnida mana shu yo'nalishga dahldor boshqa sohalar (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi) rivojiga ham ijobiy ta'sir etadi.

Ekoturizmning nazariyasi xali to'liq tadqiq etilmasdan uning yangi ko'rinishlari vujudga kelmoqda.

Ekoturizmningsofiqtisodiysamarasinianiqlash – mushkul masala. Turli mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, ekoturizmdan tushgan daromadning 95 foizi mahalliy hududlar (viloyat va tumanlar) iqtisodi ulushiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, ekoturistlarning kunlik xarajatlari boshqa turdagi sayyohlarnikidan 2–3 barobar ko'p. Misol uchun, dunyoning yetakchi ekoturizm hududlaridan biri bo'lmish Kosta-Rikada bir sayyoh ekoturizm manzilida o'rtacha $1000 sarflasa, bu ko'rsatkich Fransiyada $400 ga teng. Boshqa misol: Dominikada sayyohlar tabiatga ziyonsiz kichik qo'noqlar uchun sayyohlik kemalaridan ko'ra 18-marta ko'p pul to'laydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublikada faoliyat yurituvchi turoperatorlar, davlat hokimiyati idoralari xodimlari va aholining ekologik bilimlarini oshirish masalaning yana bir muhim jihatidir. Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishni tavsiya etish mumkin. Shuningdek, ekoturlarni Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan hamkorlikda ishlab chiqish lozim. BMTning barcha barqaror rivojlanish maqsadlariga (xususan, ekologik va iqtisodiy barqarorlik sohasidagi) erishish uchun O'zbekiston Respublikasida turizmning muqobil turi sifatida ekoturizmni rivojlantirish muhim albatta. Uni rivojlantirishda ekologiya va turizmning manfaatlari qarama-qarshiligi emas, aksincha, hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida ekoturizmni rivojlantirishda bir necha tarmoqlar va hududlararo masalalarni hal qilish zarur bo'lganligi uchun asosiy vazifa va maqsadlari O'zbekiston Respublikasida Ekoturizmni rivojlantirishni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasida Ekoturizm Assotsiatsiyasini tashkil qilishni tavsiya etamiz.

O'zbekiston RespublikasiEkoturizmAssotsiatsiyasining maqsadi – mintaqada tabiiy va tarixiy-madaniy merosinisaqlash ishi bo'yicha a'zolarni birlashtirish va tadbirlarni muvofiqlashti-rishhamda ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning samarali shakli sifatida ekologik turizmni rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ–4477-son qarori bilan tasdiqlangan 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish Strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF–60-son, 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlarto'g'risida"gi PF–5326-son Farmoni
3. Egamberdiyev F. T. Yoqubjonova H. Y. Ekoturizmning iqtisodiy mohiyati va uni takomillashtirish masalalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. –Toshkent, 2018. -№ 3. –B. 3.
4. Mayra Sanchez Morgan, Doctor of Philosophy dissertation on "Ecotourism and Women's Empowerment: A Case Study in Quintana Roo Mexico" Michigan Technological University, 2019. https://doi.org/10.37099/mtu.dc.etdr/971
5. Tuğba Kiper, "Role of Ecotourism in Sustainable Development" Namık Kemal University, -Turkey, 2013. http://dx.doi.org/10.5772/55749
6. S. A. Abduxamidov. Mintaqaviy turizmning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand – 2021-yil.: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, – 62 b.
7. M. B. Kalanova. Respublikamizda ekologik turizmni rivojlantirishda ovqatlantirish xizmatlarini tashkil etishning ahamiyati. Current issues of bio economics and digitalization in the sustainable development of regions. 27–28 April, 2022| Samarkand branch of Tashkent state university of economics. www.sbtsue.uz.
8. A. Z. Mo'minov. Ekologik turizm – taraqqiyotning muhim omili. https://journals.uz/wp-content/uploads/2019/07/tarix–2019–02/265–271.pdf
9. A. Qodirov. Ekologik turizmni rivojlantirishda xalqaro turistik tashkilotlarning o'rni. Biznes-ekspert. Iqtisodiy ilmiy-amaliy oylik nashr. № 2, 2021
10. M. Z. Ruzimova. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning istiqbollari. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3,848 (SJIF) February 2023 / Volume 4 Issue 2
11. globenewswire.com
12. https://plus-one.ru/manual/2021/08/24/chto-takoe-ekoturizm-sovremennaya-koncepciya-zelenogo-turizma.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 7**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi 26-uy.